

QUR'ON OYATLARIDA DINIY BAG'RIKENGLIK MASALALARIGA MUNOSABAT

Ergashev Hakimbek Yo'ldosh o'g'li

“Islomshunoslik” ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada islom dinidagi diniy bag'rikenglik, uning Qur'on oyatlari bilan dalillanishi, insonlar hayotidagi o'rni, uning mohiyati, payg'ambarimiz(s.a.v)ning bu borada bizga namuna bo'lganligi, davlatimiz qonunlarida uning ifodalanishi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *Bag'rikenglik, vijdon erkinligi, Qur'oni karim, ummat, faqih, mufassir, mutaassib.*

O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati “Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi”, “Dunyoviylik – dahriylik emas” degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiyada "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega"¹, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»² deb hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunda o'zining huquqiy ifodasini topgan.

Bag'rikenglikka islom dinida alohida e'tibor berilgan bo'lib, islomning ilk davridayoq bag'rikenglik dinning asosiy omili sifatida namoyon bo'ldi. “Baqara” surasining 256 oyatida «La ikraha fid-din» («Dinda zo'rlash yo'q») – deyilgan. Qur'oni karimning Moida surasi 2-oyatida «Ezgulik va taqvo (yo'li)da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat (yo'li)da hamkorlik qilmangiz³!..», – deb marhamat qilgan. Ushbu oyatlar Qur'on to'lig'icha bag'rikenglik ruhi bilan sug'orilganligini isbotlaydi. Ko'pincha Qur'on va hadislardagi ba'zi o'rinlarni, ayniqsa urush haqidagi, jihod to'g'risidagi ko'rsatmalarni noto'g'ri ravishda, jangarilik ruhida talqin qilishadi. Vaholanki, haqiqiy islom nuqtai nazaridan qaralsa, bunday urush faqat mudofaa maqsadida olib borilgandagina shar'iy (qonuniy)dir. Aks holda, hatto islom dinini tarqatish uchun bo'lganda ham urush muqaddas emasdir. Qur'on oyatlarini sinchiklab o'rgangan kishi shak-shubhasiz shunday xulosaga kelishi muqarrar. Bundan 100 yil avval ko'zga ko'ringan rus faylasufi V.S.Solovev shunday yozgan edi: «Yuqorida

¹ Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 33-moddasi. – T.: 2023.

² Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 35-moddasi. – T.: 2023

³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti matbaa birlashmasi. 2018. – B. 106.

keltirilgan Qur'on matnlaridan Muhammadga nisbatan fanatizm, toqatsizlik, diniy zo'rvonlik kabi ayblar qanchalik nohaq ekanini ko'rdik. Umuman musulmonlarning muqaddas kitobida Muhammad tomonidan dinni ongli ravishda suistemol qilinganligi haqida bironta so'z yo'q».

Oisha r.a rivoyat qilinadiki, Payg'ambar alayhissalom vafot qilishlaridan oldin bir yahudiyga o'z sovutlarini garovga berib, undan 30 so' arpa sotib olgan ekanlar. Oisha onamiz roziyallohu anho mana shu voqeani u zotning bag'rikenglik borasida o'z ummatlariga ko'rsatgan eng katta ta'limlari, deganlar.

Islom o'zidan avvalgi samoviy dinlarni (yahudiylik, nasroniylik) hurmat qilish bilan cheklanmay, o'sha din ahllariga cheksiz muruvvatlar ko'rsatgan. Ularning haquhuqlarini qonun bilan mustahkamlab qo'ygan. Madaniyati va an'alariga ehtirom bilan qaragan. Asrlar davomida bu qoidalarga amal qilib yashagan musulmonlar bir-birlariga va hatto oralarida yashaydigan ajnabiylarga, ahli zimmaga ham muruvvatning mislsiz namunalarini ko'rsatib, butun insoniyatga ibrat bo'lishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)dan rivoyat qilingan hadisda esa: «Xalqning barchasi Allohning izmidadir. Ularning Allohga mahbubrog'i ahliga naf beruvchirog'idir», deyilgan (Bazzor rivoyati). «Kim ahli zimmaga biror zahmat yetkazsa, qiyomat kuni meni o'zining dushmani sifatida ko'radi» (Ahmad ibn Hanbal, Musnad).

Samarqandlik ulug' faqih, buyuk mufassir Abu Lays Samarqandiy rohimahulloh o'zlarining «Bahrul ulum» degan tafsirlarida ham Mumtahana surasining 8-9-oyatlarini sharhlab, shunday yozganlar: «Sizlar bilan dinda urush qilmagan o'zga din vakillari bilan bordi-keldi qilinglar, chunki Alloh taolo o'sha oyatlarda «Sizlar bilan din borasida urushmaganlarga yaxshilik qilishingizda, ularga adolat qilishingizda hech qanday monelik yo'q» degan.

Islomda bag'rikenglik masalasi juda muhim o'rin tutadi. Islom kishilarni birdamlikka, yaxshilikka, ahillikka chaqiradi. Alloh taolo Qur'oni karimning «Hujurot» surasida: “Ey insonlar! Darhaqiqat, biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilam tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar, qilib qo'ydik, Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir⁴”, deya marhamat qiladi. Darhaqiqat, Islomda zo'rvonlik, o'zgaga zulm yetkazish yo'q. Hattoki insonlarni dinga zo'rlik bilan chaqirish ham mumkin emas. Haqiqiy musulmon, o'zini Islomda deb bilgan kishilarning shiori tinchlik bo'lishi kerak. Musulmon odam, hadisga muvofiq, o'zgalarga tili bilan ham, qo'li bilan ham ozor yetkazmasligi kerak. Aksincha, mo'min odam atrof dagilarga faqat manfaat yetkazishi zarur. Payg'ambar alayhissalom: “Din bu – husni xulqdir”, deganlar. Ya'ni din bu odobdir, axloqdir, insoniylikning go'zal tajassumidir.

⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti matbaa birlashmasi. 2018. – B. 517.

Islom o'zining ilk davridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Jahon dinlarining ichida faqat Islomda e'tiqod erkinligi ochiq-oydin e'lon qilingan: Baqara surasining 256-oyatida: «Dinda zo'rflash yo'q⁵»-deyilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) bu borada islom ummatigagina emas, butun insoniyatga ibrat-namuna bo'ldilar. U zot Madinaga hijrat qilganlarida davlat ishlaridagi birinchi ishlari o'sha yerlik yahudiylar bilan ularning aqidalarini hurmat qilishga asoslangan ahdnoma tuzish bo'ldi. Janob Rasululloh ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan ham qabul qilardilar. Madinaga Habashiston nasroniylarining vakillari kelganida, ularni masjidga tushirib ziyofat berdilar va xizmatlarini qildilar. Rasululloh o'zlari namuna bo'lgan holda butun ummatni insonlar o'rtasidagi munosabatda halimlikka, bag'rikenglikka chaqirdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bag'rikenglik va osonlik Islom shariatining eng ulkan maqsadidir. Bu ma'noni ta'kidlovchi hujjat va dalillar ko'p. Bag'rikenglik inson tabiatiga bog'liq narsadir. Ayni paytda, insoniyatning ko'p asrlik tarixi dindan niqob sifatida foydalanish, undagi g'oyalarni vayronkorlik ruhida talqin etish odamlar boshiga ko'plab kulfatlar keltirganini ko'rsatadi. Zamonaviy voqelik dindan g'araz maqsadlar yo'lida foydalanish davom etishi barobarida u o'ta nozik tus va xatarli ko'rinishlar olayotganidan guvohlik beradi.

Islom dini insonlarni bag'rikeng, mehr-muhabbatli, oqibatli bo'lishga chaqiradi va mutaassiblik esa qattiq qoralanadi. Bag'rikenglik to'g'risida esa Qur'oni karimda 50 dan ziyod oyat vorid bo'lgan. Bu ezgu g'oyalarni xalqimizga tog'ri yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. –Toshkent. 2023.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi qonuni. – Toshkent. 2021.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti matbaa birlashmasi. 2018. – 624 b.
4. A.Ochildiyev va mualliflar jamoasi. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. –Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2007.– 126 b.
5. Imom Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf an-Nabaviy. Riyozus solihiyin – Toshkent: ”Matbaachi”, 2022.– 244 b.

⁵ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti matbaa birlashmasi. 2018. – B. 42.